



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil  
yanvar-mart



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart oylari)




**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi -  
51,4%**



**Aholi jon  
boshiga  
xizmatlar  
hajmi –  
1 831,3  
ming so'm**




**Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi - 66,6%**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- aprel holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-mart)




## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- aprel holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar-mart)



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart oylari)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-mart oylari)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart oylari)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>1 677,5</b>	<b>100,0</b>	<b>113,3</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	732,1	43,6	114,6
Shirin	22,7	1,4	115,2
Yangiyer	122,6	7,3	117,3
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	146,0	8,7	106,5
Guliston	73,1	4,4	113,8
Mirzaobod	86,5	5,2	114,7
Oqoltin	55,9	3,3	114,3
Sardoba	65,0	3,9	114,5
Sayxunobod	72,0	4,3	107,9
Sirdaryo	220,5	13,1	112,6
Xovos	81,1	4,8	111,7

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-mart oylari)




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-mart oylari)

Hajmi, ming so'mda      O'sish sur'ati

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Guliston shahri	7 342,7	111,1%
Yangiyer shahri	2 549,0	114,4%
Sirdaryo tumani	1 604,6	110,6%
Shirin shahri	1 169,2	114,6%
Mirzaobod tumani	1 072,3	112,6%
Boyovut tumani	1 049,9	104,6%
Oqoltin tumani	1 000,6	112,7%
Sardoba tumani	923,5	112,9%
Guliston tumani	915,7	111,3%
Sayxunobod tumani	868,7	106,6%
Xovos tumani	790,1	109,7%




## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-mart oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **50,3** foizni, shu jumladan, **20,2** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-mart oylari)






## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart oylari)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>1 677,5</b>	<b>100,0</b>	<b>113,3</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	96,5	5,7	113,7
Moliyaviy xizmatlar	563,1	33,6	118,6
Transport xizmatlari	229,2	13,7	116,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	213,6	12,7	111,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	47,4	2,8	108,4
Savdo xizmatlari	390,6	23,3	107,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	42,2	2,5	116,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	52,1	3,1	107,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	38,2	2,3	107,1
Ijara xizmatlari	28,4	1,7	112,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	38,6	2,3	107,0
Shaxsiy xizmatlar	32,9	1,9	106,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	13,1	0,8	105,0
Boshqa xizmatlar	105,2	6,3	114,3

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-mart oylari)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-mart oylari, mlrd. so'mda)

Guliston shahri	345,3
Sirdaryo tumani	46,6
Boyovut tumani	41,3
Sayxunobod tumani	21,7
Guliston tumani	21,0
Xovos tumani	19,5
Sardoba tumani	19,4
Yangiyer shahri	18,2
Oqoltin tumani	16,1
Mirzaobod tumani	9,6
Shirin shahri	4,4

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-mart oylari)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-mart oylarida 94,4** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi **61,3** foizni yoki **345,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **93,2 %**.

Guliston shahrida transport xizmatlari hajmi **57,5** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **115,7 %** ni tashkil etgan.


## Transport xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart oylari)



## Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-mart oylari)





<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

⚙️ O'sishi

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart oylari)

**2024- yil yanvar-mart oylarida** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **213,6** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,7 %** ni tashkil etdi.




**111,1% Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari**  
(2024- yil yanvar-mart oylari)



**111,2% Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi**  
(2024- yil yanvar-mart oylari)



**115,9% Yo'lovchi tashish**



**111,5% Yuk tashish**

**111,3%**

**Hajmi, mlrd. so'mda** ● **O'sishi**

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


## 2024- yilning yanvar-mart

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **68,3** foizni tashkil etdi.



## Savdo xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart oylari)



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-mart oylari)



Guliston shahri	97,3	110,5%
Sirdaryo tumani	77,7	111,7%
Yangiyer shahri	40,3	110,8%
Mirzaobod tumani	35,6	111,3%
Xovos tumani	28,8	111,2%
Boyovut tumani	27,2	100,4%
Sayxunobod tumani	22,5	100,2%
Guliston tumani	20,1	110,8%
Oqoltin tumani	17,0	126,7%
Sardoba tumani	16,6	111,0%
Shirin shahri	7,5	110,8%

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-mart** oylarida ularning ulushi **95,8** foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-mart oylari)



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-mart oylari)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi


## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart oylari)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-mart** oylaridagi ulushi **59,5 %** ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart oylari)






## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart oylari)

**2024- yilning yanvar-mart** oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **34,2** foizni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart oylari)




## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-mart oylari)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **83,8** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-mart oylari)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sish sur'ati

**2024- yilning yanvar-mart** oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **87,0** foiz.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar - mart oylari)



## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar - mart oylari)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar – mart oylari)



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar – mart oylari, mlrd. so'mda)




**2020- yilning yanvar-martiga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **13,2** mlrd. so'mga oshib, **28,4** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar-mart** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **38,2 %** ni tashkil etdi.




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar – mart oylari)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 27,6 foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar – mart oylari)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi

## Shaxsiy xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart oylari)



## Hududlar kesimida shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar –mart oylari, mlrd. so'mda)



**2023- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida shaxsiy xizmatlar hajmi **5,7** mlrd. so'mga oshib, **32,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida sataroshlik xizmatlari ulushi **79,3** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 67 236-70-00

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.